

2025
1(21)

IQTISODIYOT VA TURIZM
xalqaro ilmiy va innovatsion jurnali

ЭКОНОМИКА И ТУРИЗМ
международный научно-
инновационный журнал

ECONOMICS AND TOURISM
international scientific and
innovative journal

ISSN 2181-2551
E-ISSN 2181-2561

ISSN 2181-2551



9 772181 255890

E-ISSN 2181-2561



9 772181 256001



ISSN 2181-2551
E-ISSN 2181-256X

"IQTISODIYOT VA TURIZM"
xalqaro ilmiy va innovatsion jurnali

«ЭКОНОМИКА И ТУРИЗМ»
международный научно- инновационной журнал

"ECONOMICS AND TOURISM"
international scientific and innovative journal

№1(21) 2025

O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022 yil 30 apreldagi 315/5-son qarori bilan iqtisodiyot fanlari buyicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari yuzasidan dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.



Jurnal haqida

"Iqtisodiyot va turizm" xalqaro ilmiy va innovatsion jurnali

"Iqtisodiyot va turizm" xalqaro ilmiy-innovatsion jurnaliga taqdim etilgan ilmiy maqolalarga qo'yiladigan asosiy talablar falsafa doktori (PhD), fan doktori (DSc) dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini xalqaro standartlar va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida "Oliy attestatsiya komissiyasi to'g'risidagi Nizom" talablari, shu jumladan elektron ilmiy-texnik jurnallarga qo'yiladigan talablar tizimi hisoblanadi.

«Экономика и туризм» международный научно- инновационный журнал

Основные требования к научным статьям, представляемым в международном научно-инновационном журнале «Экономика и туризм» являются научные труды, рекомендованные для публикации основных научных результатов докторских (PhD), (DSc) диссертаций в соответствии с международными стандартами и «Положением о Высшей аттестационной комиссии» при Кабинете Министров Республики Узбекистан, в частности требования к электронным научно-техническим журналам.

About the magazine

"Economics and Tourism" international scientific and innovative journal

The main requirements for scientific articles submitted to the international scientific and innovative journal "Economics and Tourism" are scientific publications recommended for the publication of the main scientific results of doctoral (PhD), (DSc) dissertations in accordance with international standards and the "Regulation on the Higher Attestation Commission" Under the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan, including from templates in the system of requirements for electronic scientific and technical journals.



EDITORIAL BOARD

Chairman of the Editorial Board

Navruz-Zoda Bakhtiyor Negmatovich

Bukhara State University Professor Doctor of Economical sciences (DSc)

Vise-Chairman of the Editorial Board

Khamraev Khalim Razikovich

Bukhara State University Docent Doctor of economical sciences

Main editor

Khidirova Gavkhar Rustamovna

Bukhara State University Docent Doctor of philosophy (PhD) Economical sciences

Members of editorial board

Khamidov Obidjon Khafizovich

Bukhara State University Professor Doctor of Economical sciences (DSc)

Akhmedov Tursun Mukhitovich

Institute of forecasting and macroeconomic researcher (IFMR) Deputy director professor,

Doctor of Economic Sciences (DSc)

Maydyrova Aigul Bulatovna

Doctor of Economics, Professor. Head Department of "Economics and Entrepreneurship" of the Faculty of Economics of the Eurasian National University L.N. Gumilyov

Ivlieva (Shaposhnikova) | Olga Vasilevna

Doctor of Geography, Professor of the Tourism Department of the Higher School of Business of the Southern Federal University

Mutalieva Lyailya Maratovna

Candidate of Economic Sciences, Associate Professor, Head of the Department "Tourism" of the Eurasian National University L.N. Gumilyov

Djavlonbek Kadirov

Place of work: Victoria University of Wellington PhD in Marketing

Yuldashev Shuxrat Ganievich

National university of Uzbekistan professor Doctor of economic science

Khazhimov Pazliddin Zukurovich

National university of Uzbekistan Docent Doctor of philosophy (PhD) of Economic sciences

Eshtayev Alisher Abduganiyevich

Doctor of Economic Sciences, Professor, Director of the Department for the Development of Education, Science and Research of the Ministry of Culture and Tourism of the Republic of Uzbekistan

Navruz-zoda Zebiniso Bakhtiyorovna

Doctor of philosophy on economic sciences (PhD), Associate Professor Department of Economics of the Bukhara State University

Oripov Makhmud Ashurovich

Bukhara State University associate professor Department of ""Agribusiness and Agro Logistics""

Abdullaev Ilyos Sultanovich

Urgench State University professor Doctor of economic sciences

Alimova Mashhura Toirxonovna

Samarkand Institute of Economics and Service Professor of the Department of Management
DSc in Economics

Juraev Abror Turobovich

Bukhara State University Vice-rector for International Cooperation Candidate of economic sciences

Ibragimov Nutfillo Salimovich

Bukhara State University Professor Doctor of Economical sciences (DSc)

Yavmutov Dilshod Shoyimardonkulovich

Bukhara State University Docent Doctor of philosophy (PhD) Economical sciences

Tadjieva Sayyorakhon Uralovna

Bukhara State University Head of the Department Candidate of economic sciences

Rustamov Farrukh Rustam ugli

Bukhara State Pedagogical Institute Docent Doctor of philosophy (PhD) Sociological sciences

Tukhsanov Kudratillo Nozimovich

Tashkent State University of Economics Professor Doctor of Economical sciences (DSc)

Hudayberganov Dilshod Tuxtabaevich

Urgench State University of Economics Professor, Doctor of Economical sciences (DSc), associate professor

Responsible editor: Gavhar Xidirova

Web-administrator: Erkin Farmonov



MUNDARIJA

Юлдашев Шухрат Ганиевич. Концепции циркулярной экономики и механизмы их реализации	5
Ismailov Dilshod Anvarjonovich. Foreign approaches to economic growth and prospects for utilizing its drivers in our country	25
Шоахмедов Шохрух Шорахимович. Концептуальные подходы стратегии повышения благосостояния населения в Узбекистане	34
Xidirova G.R. Turizmni mamlakat va hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishdagi oʻrni va ahamiyati	41
D.Sh.Yavmutov, B.M.Yuldosheva. Mintaqaning tabiiy resurs salohiyatini rekreatsion maqsadlarda baholash masalalari	52
Шадиева Гулнора Мардиевна. Развитие малого бизнеса в Узбекистане: стратегии поддержки и перспективы роста.....	60
Xodjayeva Dilbar. Kambagʻallikni aniqlashning kontseptual yondashuvlari.....	68
Мустафоев Азимжон Фаррухович. Нодавлат таълим ташкилотларида харажатларнинг таълим хизматлари таннархига таъсири ва ҳисобини такомиллаштириш	76
Raximov Toʻxtabek Jumaboyevich, Sharipbayev Bobur Marks oʻgʻli. Yashil iqtisodiyot-barqaror rivojlanishning ustuvor yoʻnalishi sifatida	85
D.B. Oʻroqova. Mintaqaviy turizmni innovatsion rivojlanishi va klasterlarini boshqarish mexanizmi	93
Musayev Malikjon Karomatovich. “Ziyorat” va “sayohat” tushunchalarining qiyosiy tahlili	102
Аҳмаджон Таниев. Ахборот-коммуникация технологиялари ва Интернетнинг туризм соҳасига таъсири	110

технологий для повышения производительности. Глобализация малого бизнеса: анализ возможностей и рисков, которые предоставляет международная торговля и экспорт для малых предприятий Узбекистана. В заключение, можно сказать, что исследования в области малого бизнеса в Узбекистане охватывают широкий спектр проблем и направлений, от государственных программ поддержки до цифровых инноваций и психологии предпринимателей. Будущие исследования в этой области могут сыграть важную роль в разработке новых стратегий для поддержки роста и устойчивости малого бизнеса в стране.

Литература

1. Абдурахманов, А. (2021). *Развитие малого бизнеса в Узбекистане: Проблемы и перспективы*. Ташкент: Издательство "Экономика и бизнес".
2. Иванов, В. (2020). *Государственная поддержка и развитие малого бизнеса в Узбекистане*. Ташкент: Академия наук Республики Узбекистан..
3. Смирнова, Т. (2019). *Налоговая политика и её влияние на развитие малого бизнеса*. Ташкент: "Бизнес-образование".
4. Мухамедов, Р. (2022). *Цифровизация и новые технологии в малом бизнесе Узбекистана*. Ташкент: "Технологии и инновации".
5. Шарипов, А. (2023). *Социальные сети и их роль в развитии малого бизнеса в Узбекистане*. Ташкент: Издательство "Информатика".
6. Исследуется влияние социальных сетей на продвижение товаров и услуг малых предприятий, а также возможности выхода на международные рынки через онлайн-платформы.
7. Гудков, С. (2020). *Предпринимательство в развивающихся странах: возможности и вызовы*. Москва: Научный мир..
8. Исламова, Ш. (2021). *Инновации и стартапы в малом бизнесе: мировой опыт и перспективы для Узбекистана*. Ташкент: "Наука и образование". Всемирный банк. (2021). *Доклад о состоянии малого и среднего бизнеса в Узбекистане*. Всемирный банк.
9. Официальные документы Республики Узбекистан, включая:
 - Закон Республики Узбекистан «О гарантиях свободы предпринимательской деятельности», 2000 г.
 - Закон Республики Узбекистан «О развитии предпринимательства», 2020 г.
 - Указ Президента Республики Узбекистан № УП-184 «О мерах по надежной защите прав и законных интересов предпринимателей», 2024 г.
 - Агентства статистики при Президенте Республики Узбекистан, 2024 г.
10. Всемирный экономический форум. (2020). *Global Competitiveness Report*.

**KAMBAG'ALLIKNI ANIQLASHNING KONTSEPTUAL
YONDASHUVLARI**

Annotatsiya. Mazkur maqolada dolzarb ijtimoiy-iqtisodiy muammolardan biri kambag'allik muammosiga bag'ishlangan. Kambag'allik mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Kambag'alik muammosini o'rganishda ijtimoiy-darvinistik, ijtimoiy-tenglashtiruvchi yoki egalitaristik va statistik-sotsiologik yondashuvlarning tavsifi keltirilgan. Kambag'allik muammosini tahlil etish evolyutsiyasi bosqichlari o'rganilgan. Kambag'allik turlarining qiyosiy tavsifi keltirildi: ob'ektiv (mutlaq va nisbiy) va sub'ektiv. Barqaror va suzuvchi kambag'allikning xususiyatlari tahlil etildi. Birlamchi va ikkilamchi kambag'allik turlarining xususiyatlari keltirilgan. Shu bilan birga ijtimoiy, iqtisodiy va mintaqaviy kambag'allik turlari haqida ma'lumot keltirilgan. Kambag'allik nisbiy kontseptsianing asoschisi ingliz sotsiologi P. Taunsend tomonidan ko'p o'lchovli deprivatsiya tushunchasining moddiy va ijtimoiy darajalarining tavsifi keltirilgan. Kambag'allikni o'lchashning uslubiy muammolari aniqlandi. Kambag'allik darajasini miqdoriy va sifat jihatlarini baholash masalalari ko'rib chiqilgan. Kambag'allik darajasini aniqlashning asosiy mezonlari o'rganilgan. Kambag'allik miqyosi, chegaralarining iqtisodiy tavsiflari keltirilgan.

Kalit so'zlar: tengsizlik, kambag'allik, qashshoqlik, muhtojlik, ta'minlanmaganlik, deprivatsiya, yashash darajasi, kambag'allikning ko'lami va chegarasi, kambag'allik indeksi, mutlaq kambag'allik, nisbiy kambag'allik, mintaqaviy kambag'allik.

Аннотация. Данная статья посвящена одной из актуальных социально-экономических проблем как проблема бедности. Бедность оказывает негативное влияние на экономическое развитие стран. Дается характеристика социал-дарвинистского, социально-уравнительного или эгалитарного и статистико-социологического подходов к изучению проблемы бедности. Выделены три стадии эволюции решения проблемы бедности. Проведена сравнительная характеристика видов бедности: объективной (абсолютной и относительной) и субъективной. Выделены особенности устойчивой и плавающей бедности. Также приведена характеристика первичного и вторичного типов бедности. Рассмотрены социальная, экономическая и региональные типы бедности. Английский социолог П. Таунсенд, основоположник относительной концепции бедности, описал материальный и социальный уровни концепции многомерной депривации. Раскрыты методологические проблемы измерения бедности. Рассмотрены вопросы количественной и качественной оценки уровня бедности. Изучены основные критерии определения уровня бедности. Дана экономическая характеристика масштаба, порога и границ бедности.

Ключевые слова: неравенство, бедность, нищета, нужда, необеспеченность, депривация, прожиточный минимум, масштаб, порог и границы бедности, индекс бедности, абсолютная бедность, относительная бедность, региональная бедность.

Kirish. Kambag'allik dolzarb ijtimoiy-iqtisodiy muammolardan biri hisoblanadi. Insonlarda mavjud iqtisodiy resurslar ularning asosiy ehtiyojlarni qondirish uchun yetarli bo'lmasa ular kambag'al hisoblanadi. Aholi asosiy qismining aynan rivojlanish resurs (imkoniyat)laridan foydalanishning cheklanganligi kambag'allikni belgilaydi.

Aholi daromadining pasayishi, ularning haddan tashqari qutblanishi (ya'ni, nisbatan past yoki nisbatan yuqori daromadli kishilar sonining ko'payishi), jamiyatning ijtimoiy tabaqalanishini belgilaydi, ijtimoiy keskinlikni keltirib chiqaradi, mamlakatning muvaffaqiyatli rivojlanishiga to'sqinlik qiladi, oilada va jamiyatda inqirozli vaziyatlarni keltirib chiqaradi.

Materiallar va tadqiqot usullari. Mazkur tadqiqot jarayonlar va hodisalarni dialektik bilish usuliga asoslanadi. Kambag'allik muammosini tahlil etishning kontseptual asoslarini o'rganishda mantiqiy, tarixiy, statistik va iqtisodiy usullardan foydalanilgan.

Natijalar va muhokama. BMT Iqtisodiy va Ijtimoiy Kengashining qarori bilan 1984 yil 19 dekabrda quyidagi ta'rif qabul qilindi: "Kambag'allar tarkibiga resurslari shu qadar cheklangan shaxslar, oilalar, odamlar guruhlari kiradiki, ular o'zlari yashayotgan hududlarda minimal maqbul turmush tarzini olib borishga imkon bermaydi".¹

Hozirgi vaqtda kambag'allik darajasini miqdoriy va sifat jihatidan baholash masalalari ayniqsa ahamiyatlidir, chunki ular zamonaviy iqtisodiyotning ushbu salbiy hodisasiga qarshi kurashishga qaratilgan hududiy chora-tadbirlarni tanlashda amaliy yordam ko'rsatadi. Shu sababli, turli uslubiy yondashuvlari doirasida kambag'allikning mavjud barcha ta'riflari va uni baholashni ko'rib chiqish juda muhimdir.

Kambag'alik muammosini tushunishda va o'rganishda turli xil yondashuvlar mavjud:

- *ijtimoiy-darvinistik* (G. Spenser, F. Giddings, P. J. Prudon va boshqalar): aholining tengsizligi - bu butun jamiyat va shaxs rivojlanishining harakatlantiruvchi kuchi;

- *ijtimoiy-tenglashtiruvchi yoki egalitaristik* (ya'ni, teng huquqli) (J. Russo, G. Babef va boshqalar): kambag'allik - bu ijtimoiy yovuzlik, ma'lum bir turdagi taqsimlash munosabatlarining oqibati (E. Reklus) yoki kapitalistik ishlab chiqarish natijasi munosabatlar va kapitalistlar tomonidan qo'shimcha qiymatni o'zlashtirish (K. Marks va F. Engels), kambag'allikni yo'qotish mumkin faqat kapitalistik jamiyatni inqilobiy qayta qurish orqali;

- *statistik-sotsiologik* (F. Le-Ple), Ch. But va S. Rowntree): kambag'allik – jamiyatning ijtimoiy kasalligi. Masalan, Ch. But kambag'allikning quyidagi parametrlarini o'rgangan: daromad darajasi va asosiy ehtiyojlarni qondirish imkoniyatlari, muayyan darajadagi ishlash va salomatlikni saqlash uchun zarur bo'lgan normalar va standartlar.²

Ma'lumki, mamlakatimizda kambag'allik masalasi ko'p yillar davomida yopiq mavzu bo'lib kelgan. Davlatimiz rahbari 2020-yil 24-yanvar kuni Oliy Majlisga yo'llagan murojaatida bu masala yuzasidan ochiq fikr bildirdi va kambag'allikni qisqartirish birinchi marta davlat siyosiy vazifasi sifatida belgilandi.³

Mamlakatimiz Prezidenti tomonidan ushbu muammoning ochiq bayonoti va tan olinishi uning kuchli ijtimoiy siyosatni amalga oshirishga alohida e'tibor qaratayotganidan dalolat beradi. Bunda xalqning hayotiy manfaatlari, ularning ehtiyojlari va muammolari birinchi o'ringa qo'yilishi, shuningdek, davlatimiz rahbarining ularni hal qilish uchun barcha javobgarlikni o'z zimmasiga olishga tayyorligiga alohida e'tibor berish mumkin.

2020-yillardan boshlab, O'zbekistonda kambag'allik bo'yicha tadqiqotlar soni keskin oshdi.

Kambag'allik muammosini tahlil etish evolyutsiyasida uchta bosqichni ajratib ko'rsatish mumkin:

1. Yashash minimumi kontseptsiyasi (XIX asr oxiri - XX asr boshlari).

2. Nisbiy kambag'allik (deprivatsiya) kontseptsiyasi (XX asrning 60-80-yillari).

3. To'plangan deprivatsiya kontseptsiyasi nisbiy kambag'allik kontseptsiyasining rivojlanishi va chuqurlashishi natijasida paydo bo'ldi. Norvegiyadagi yashash sharoitlarini tahlil qilishga asoslangan ushbu paradigma doirasida o'tkazilgan birinchi tadqiqot muallifi E. Xansen hisoblanadi (1979).

¹ Рампракаш Д. Статистическое исследование бедности: Докл. на совещании по статистике доходов домашних хозяйств. Женева, 1994. 14–17 марта.

² Батракова Л. Г. Основные концепции оценки бедности населения. Ярославский педагогический вестник – 2011 – № 3 – Том I. 117-121С.

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga murojaatnomasi (2020 yilning 24 yanvar). <https://president.uz/oz/lists/view/4057>

Kambag'allikni aniqlashda, jahon ilm-fani va amaliyotida turli xil yondashuvlar mavjud. Hozirgi kunda eng keng tarqalgan asosiy kontseptsiyalar– mutlaq kambag'allik (daromadlar va xarajatlar bo'yicha kambag'allar); nisbiy (mahrumlik va deprivatsiya); sub'ektiv (respondentlarni baholash asosida)¹.

Mutlaq - kishi jon boshiga to'g'ri keladigan daromadi va yashash minimumini taqqoslash asosida ko'rib chiqiladi (mutlaq kontsepsiya asosida) yoki kishi jon boshiga to'g'ri keladigan daromad va qambag'allikning nisbiy chizig'i (medianning 40-60%).

Nisbiy - oilaning (uy xo'jaligining) iste'mol xususiyatlari orqali aniqlanadi va ma'lum bir oilaning jamiyatda mavjud bo'lgan iste'mol standartlari sifatida qaraladigan uzoq muddatli buyumlar, iste'mol tovarlari va xizmatlari bilan ta'minlanmaganligi sifatida tushuniladi. Mahrumlik va deprivatsiya deb, jamiyatda mavjud bo'lgan iste'mol darajasidan og'ishlik deb talqin etiladi. Deprivatsiya hodisasi sifatida, uy xo'jaligining (oilaning) kambag'alligi turli xil mahrumliklarning yuqori darajadagi kontsentratsiyasi tushuniladi.

Subyektiv - aholi o'zlarining moddiy ahvolini baholashlari, oila xarajatlarini qoplash imkoniyatlari, uy-joy, ta'lim, dori-darmon va boshqalar uchun daromad topish asosida aniqlanadi.

Birlashgan Millatlar tashkiloti va boshqa xalqaro tashkilotlar tomonidan olib borilayotgan mamlakatlar bo'yicha global tadqiqotlar yuqoridagi uchta kontsepsiyalarining kombinatsiyasiga asoslangan kambag'allikni o'rganish uchun birlashtirilgan metodologiyadan foydalanadi. Bir vaqtning o'zida, uchalla holatga mos keladigan oilalarga kambag'al oila maqomi beriladi. Bular daromadlari (xarajatlari) yashash darajasidan past bo'lgan, iste'moldan mahrumligini boshdan kechirayotgan va o'zlarini kambag'al his qiladigan oilalardir.

Mashhur rus sotsiologi L. A. Gordon **mutlaq kambag'allikning** uchta darajasini aniqlab quyidagicha tavsif bergan:

▪ *qashshoqlik* (eng chuqur (o'ta) kambag'allik) - fiziologik minimal darajadan past bo'lgan holatda yashaydigan odamlarning kambag'allik darajasi. Xavfli holat hisoblanib, u kishilarda chuqur nuqson va mahrumlik tuyg'usini keltirib chiqaradi, odamlarni nafaqat normal yashash imkoniyatidan mahrum qiladi, balki to'liq umidsizlik hissini ham keltirib chiqaradi;

▪ *muxtojlik* (o'rtacha kambag'allik), eng oddiy fiziologik ehtiyojlar uchun yetarli mablag'ga ega bo'lgan, ammo hatto eng oddiy ijtimoiy ehtiyojlarni ham qondira olmaydigan aholi guruhlarini qamrab oladi. Muxtojlikning yuqori chegarasi rasmiy yashash minimumini tashkil etadi, davlatning tegishli tashkilotlari tomonidan hisoblab chiqilgan va aslida ijtimoiy minimal ko'rsatkichi hisoblanadi. Daromadlari rasmiy yashash darajasidan kam, ammo uning yarmidan yoki uchdan ikki qismidan ko'p bo'lgan odamlar muhtoj deb hisoblanadi;

▪ *ta'minlanmaganlik* (o'rtacha kambag'allik) – fiziologik va ijtimoiy asosiy ehtiyojlar qondiriladigan turmush darajasi, ammo qondirilmagan ehtiyojlar ulushi yuqori bo'lib qolmoqda. Bu yerda yashash minimumi ta'minlangan bo'ladi, ammo farovonlik darajasiga erishilmagan hisoblanadi.

Rivojlangan mamlakatlarda mutlaq kambag'allik xususiyatini baholash kamroq tarqalgan. Biroq, ulardan ba'zilarida kambag'allik bo'yicha milliy standartlar mavjud bo'lib, ular asosan ijtimoiy imtiyozlarga muhtoj oilalarni aniqlash uchun ishlatiladi.

Nisbiy kambag'allik g'oyalarini A. Smit asarlarida uchratish mumkin. U ijtimoiy standartlar va ularga rioya qilishning moddiy qobiliyati o'rtasidagi tafovut orqali kambag'allikning nisbiy tabiatini aniqladi.²

Kambag'allik nisbiy kontsepsiyaning asoschisi ingliz sotsiologi P. Taunsend hisoblanadi. U kambag'allikni iqtisodiy resurslarning yetishmasligi tufayli ushbu jamiyatning aksariyat a'zolari uchun odatiy turmush tarzini olib borish imkonsiz bo'lib qoladi deb hisoblangan. "Buyuk Britaniyadagi kambag'allik" nomli kitobida (1979) u nisbiy kambag'allik ta'rifini umumlashtirdi: "Shaxslar, oilalar, aholining ijtimoiy guruhlari kambag'al deb hisoblanadi, agarda ular yashayotgan jamiyatda qabul qilingan va keng tarqalgan ijtimoiy hayotda ishtirok etish uchun resurslarga ega bo'lishi, kerakli parhezni saqlash, mehnat va dam olish uchun yetarli sharoitlarga

¹ http://www.budgetrf.ru/Publications/Magazines/Vestnik_SF/2003.../vestniksf213-2005

² В. С. Сычева. Измерение уровня бедности: история вопроса. — СОЦИС, 2008, № 3. с.22

ega bo'lmasa. Ularning resurslari o'rtacha shaxs yoki o'rtacha oiladan ancha past, natijada ular oddiy turmush tarzi, umumiy qabul qilingan xulq-atvor modellari, odatlar va faoliyat turlaridan chiqarib tashlanadi".

P. Taunsend ko'p o'lchovli deprivatsiya tushunchasini kiritdi, uni "jamiyat, birlashmalar yoki umuman millat fonida shaxs, oila yoki guruhning kuzatilgan va isbotlanadigan noqulay ahvoli" deb tushundi. Ko'p o'lchovli deprivatsiya tushunchasini u *moddiy va ijtimoiy deprivatsiyaga* ajratib, o'rganishni taklif etdi. Bunda:

- *moddiy deprivatsiya* - oziq-ovqat, kiyim-kechak, uy-joy sharoitlari, uzoq muddatli buyumlar, yashash muhitining joyi va holati, mehnat sharoitlari va tabiati kabi bir qator ko'rsatkichlarni o'z ichiga oladi

- *ijtimoiy deprivatsiya* - bandlik tabiati, bo'sh vaqtni o'tkazish xususiyatlari, ta'lim va boshqalarni o'z ichiga oladi.

Kambag'allik darajasini aniqlashda aholini uchta asosiy mezon bo'yicha baholash amaliyoti qo'llaniladi: daromad va mulk, ta'lim va o'z taqdirini o'zi belgilash imkoniyati. Yuqoridagi uchala parametrlarga deyarli ega bo'lmagan aholini "kambag'al" deb hisoblash mumkin. Bu guruhni "umidsiz" kambag'al deb ta'riflash mumkin, chunki ularda mustaqil ravishda bunday holatdan chiqish uchun, deyarli hech qanday imkoniyat yo'q va ularga yordam berishning yagona usuli bu - iste'molning fiziologik minimal miqdorini saqlash uchun davlat subsidiyalarini belgilash. Nisbiy kambag'allik kontsepsiyasida eng kam daromad va o'rtacha daromad o'rtasidagi nisbat kambag'allikning chegarasi sifatida qabul qilingan. Daromadning o'rtacha qiymatini hisoblash uchun barcha qiymatlarni eng kichikdan eng katta miqdorgacha aniqlab va o'rtada turgan qiymat tanlanadi. Masalan, agar daromad 30, 40, 50, 60, 70 shartli birlik bo'lsa, unda o'rtacha daromad 50 shartli birlik bo'ladi (bu qiymat tartiblangan qiymatlar ro'yxatining o'rtasida joylashganligi uchun).

Jahon amaliyotida nisbiy kambag'allik darajasi mamlakatda asosiy daromadning 40-60% dan oshmaydigan daromad darajasi bilan tavsiflanadi.

Binobarin, kambag'allik chegarasi aholi jon boshiga ekvivalent daromadi barcha oilalar uchun hisoblangan o'rtacha daromadning 40 foizidan (o'ta kambag'allik) yoki 60 foizdan oshmaydigan oilalarni aniqlash yo'li bilan aniqlanadi.

Evropada kambag'allikning nisbiy darajasini o'lchash uchun, qoida tariqasida, ikkita asosiy yondashuv bor:

- Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti metodologiyasiga ko'ra, mamlakatda daromadi o'rtacha daromadning 60% dan kam bo'lgan kishi kambag'al hisoblanadi;

- Evropa statistikasi agentligi metodologiyasiga ko'ra, mamlakatda aholi jon boshiga o'rtacha daromadning 50% dan kam daromadga ega bo'lgan kishi kambag'al deb hisoblanadi. Bunday daromad darajasiga ega bo'lgan shaxs kambag'allik xavfi ostida hisoblanadi.

Mutlaq va nisbiy kambag'allik chegaralari mos kelmaydi. Jamiyatda mutlaq kambag'allikni bartaraf etish mumkin, lekin nisbiy kambag'allik doimo saqlanib qoladi, chunki tengsizlik tabaqalashgan jamiyatning ajralmas qismi hisoblanadi. Barcha ijtimoiy qatlamlarning hayot standartlari oshganda nisbiy kambag'allik saqlanib qoladi va hattoki ortadi.

Subyektiv kambag'allik aholining o'zlarining moddiy ahvolini baholashlari, pul topish, uy-joy, dori-darmon, ta'lim va boshqalar uchun pul to'lash imkoniyatlari asosida belgilanadi.

Ushbu metodologiyaga ko'ra, sub'ektiv ravishda shaxsiy ijtimoiy-psixologik tuyg'ularga asoslanib, o'zini o'zi kambag'al hisoblaydigan fuqarolar kambag'allar qatoriga kiradi. Umuman olganda, kambag'allikning sub'ektiv darajasi rasmiy darajadan oshib ketadi, bu esa ijtimoiy keskinlikning o'sishiga olib keladi.

L. A. Belyaeva va L. A. Gordon subyektiv kambag'allikni daromad va iste'molning mutlaq miqdoridan qat'i nazar, o'zlarini sub'ektiv ravishda kambag'al deb hisoblaydigan aholi guruhlarini belgilaydi.

Mutlaq, nisbiy va sub'ektiv kambag'allikdan tashqari, xorijiy tadqiqotchilar birlamchi va ikkilamchi kambag'allikni ajratib ko'rsatishadi. *Birlamchi kambag'allik*, mavjud vositalar va kuchlardan maksimal darajada foydalangan holda, oqilona turmush tarzini tashkil etgan holda, hali

ham kambag'allik ostonasida qoladigan oilalarda mavjud. *Ikkilamchi kambag'allik* mablag'larning asossiz sarflanishi tufayli asosiy hayotiy ehtiyojlari qondirilmaydigan oilalarni tavsiflaydi.

Yana bir guruh mutaxassislar tomonidan kambag'allikning ikki shaklini ajratishni taklif etilgan: barqaror va suzuvchi.¹ *Barqaror kambag'allikning* xususiyati shunda-ki, odatda kambag'allik kambag'allikni keltirib chiqaradi, *suzuvchi* kambag'allik esa kishilarlar harakat qilib, o'z doiralari tark etishlari va yangi sharoitlarga moslashib, yuqori sifatli turmush darajasiga ega bo'lishlari bilan farqlanadi.

Bundan tashqari, ijtimoiy, iqtisodiy va mintaqaviy kambag'allik turlarini ajralib ko'rsatish mumkin. *Ijtimoiy* kambag'allar toifasiga - nogiron va mehnatga layoqatsiz kishilar, kasallar, jismoniy va psixologik jihatdan beqaror va boshqalar kiradi. *Iqtisodiy* kambag'allik to'laqonli ishchilar o'zlarining mehnatlari bilan ma'lum bir davrda va ma'lum bir jamiyatda qabul qilingan farovonlik darajasini ta'minlay olmaydigan vaziyatga tushib qolgan hollarda yuzaga keladi. *Mintaqaviy* kambag'allik - kambag'allikning turli geografik hududlar bo'yicha taqsimotini tavsiflaydi, u kambag'allikning eng yuqori kontsentratsiyasi nuqtalarini aniqlash va uning sabablari va oqibatlarini aniqlash uchun qo'llaniladi. Dunyoning ba'zi hududlarida kambag'allik avloddan-avlodga "meros" sifatida o'tib keladi va surunkali hodisaga aylanadi. Bu hududlar iqtisodiy jihatdan rivojlanmagan mintaqalar hisoblanadigan "uchinchi dunyo" mamlakatlari sifatida tasniflanadi.

Mintaqaviy kambag'allik mamlakat ichida ham mavjud bo'ladi, shu jumladan mamlakatimizda ham. Kambag'allikning eng yuqori darajasi Qoraqalpog'iston, Sirdaryo va Xorazm viloyatlarida kuzatilgan.²

Kambag'allikni o'lchashning asosiy usullari:

- *yashash minimumini (minimal iste'mol savatini) belgilash*. Ushbu usul mutlaq kambag'allik kontseptsiyasiga tayanadi;

- *deprivatsiya (mahrum bo'lish) usuli*, unga ko'ra iste'moli jamiyatda qabul qilingan me'yorga mos kelmaydigan va ma'lum bir tovar va xizmatlar to'plamidan foydalanish imkoniyati bo'lmagan fuqarolar kambag'al deb hisoblanadi. Ijtimoiy uy-joy standarti kambag'al aholi qatlami yoki o'rta sinfning quyi qatlamlariga qaratilgan quyi chegarani bildiradi. Rossiyada uy-joy standarti bir kishi uchun 18 kv/m, Evropada - 30 kv/m, mamlakatimizda esa 1 kishi uchun - umumiy maydoni 16 kv/m³ dan kam bo'lmagan holda belgilangan. Kommunal kvartiralarda yashovchilar (egallagan metrlar sonidan qat'i nazar) kambag'al aholi qatlamiga kiradi;

- *ijtimoiy siyosat usuli*, unga ko'ra rasmiy kambag'allik chegarasi sifatida, eng kam pensiya miqdori belgilanadi, masalan Buyuk Britaniya va Shvetsiyada qo'llaniladi;

- *ijtimoiy tengsizlik usuli* kambag'allik chegaralari iqtisodiy farovonlikning o'rtacha darajasiga nisbatan belgilanadi;

- bir qator statistik xususiyatlarni o'zida jamlagan, aholi kambag'allik darajasini aniqlaydigan *integral ko'rsatkich* (inson taraqqiyoti indeksini hisoblash uchun foydalaniladigan ko'rsatkichlar: aholining qashshoqlik indeksleri -1 va -2).

Kambag'allikni o'lchashning uslubiy muammolari orasida quyidagilarni ta'kidlab o'tish mumkin:

1. uy xo'jaligi kambag'allarga tegishli ekanligini belgilaydigan yagona ko'rsatkich (daromad yoki xarajat) aniqlanmagan. Jahon amaliyotida oylik harajatlarga ustivorlik beriladi, bunda umumiy iste'mol xarajatlari va uyda ishlab chiqarilgan mahsulotlar iste'molini aks ettiruvchi xarajatlarga qo'shiladi, uzoq muddatli foydalanadigan tovarlar harajatlari esa chegirib tashlanadi;

2. turli uy xo'jaliklari bo'yicha ko'rsatkichlarning solishtirilishi, daromad va xarajatlarga uy xo'jaliklarining hajmi va tarkibidagi farqlar ta'sir ko'rsatishi bilan murakkablashadi;

¹ Батракова Л. Г. Основные концепции оценки бедности населения. Ярославский педагогический вестник – 2011 – № 3 – Том I. 117-121С.

² <https://www.gazeta.uz/ru/2023/07/27/poverty/>

³ <https://lex.uz/docs/106134?ONDATE=30.08.2024>

3. kambag'allikda qolish muddati va vaqt oraligini hisobga olish tahlilining muhim nuqtalari hisoblanadi: qaysi vaqt oralig'ida kambag'al aholining ulushini hisobga olish maqsadga muvofiq (yil davomida, chorak davomida, besh yil, o'n yil davomida);

4. Kambag'allar soni, ularni hisoblash mezonlari va kambag'allik chegarasini aniqlashning turli usullari mavjud.

Kambag'allik ko'lami - rasmiy kambag'allik chegarasida bo'lgan mamlakat aholisining ulushi bilan belgilanadi. Birinchi marta kambag'allik chegarasi XIX asrning 90-yillarda ingliz sotsiologlari C. But va S. Rowntree tomonlaridan belgilandi. Kambag'allikni o'lchashning eng oddiy usuli - pul ko'rinishidir.

Kambag'allikning statistik chegarasi kambag'al va kambag'al bo'lmaganlarni ajratib turadigan chegara hisoblanadi. Bu mamlakat iqtisodiy rivojlanish darajasiga bog'liq: rivojlangan mamlakatlarda chegara yuqori, rivojlanmagan mamlakatlarda – pastroq. Kambag'allikning chegarasi pul shaklida (masalan, ma'lum darajadagi daromad) va pul bilan bog'liq bo'lmagan (masalan, ma'lum darajadagi savodxonlik) shakllarda belgilanishi mumkin.

Kambag'allikning pul shaklidagi chegarasi – bu rasmiy ravishda minimal daromad sifatida belgilangan pul miqdori, uning yordamida shaxs yoki oila oziq-ovqat, kiyim-kechak va uy-joy sotib olish imkoniyatini belgilaydi.

Shuni ta'kidlab o'tish kerakki, nafaqat turli mamlakatlarda, balki bir mamlakat doirasida ham kambag'allik chegarasi turli usullar bilan hisoblanadi. Bularning barchasi qanday maqsadlarda amalga oshirilishiga bog'liq: statistik maqsadlar uchun, ijtimoiy himoya tashkilotlari uchun va boshqalar.

Kambag'allik chegarasi quyidagi usullar bilan hisoblanadi: *statistik*, yoki daromadlar bo'yicha taqsimotning birinchi 10-20% guruhi yoki o'rtacha darajadan past daromadga ega bo'lganlarning ma'lumotlari bo'yicha; *meyo'riy*, standartlarga muvofiq kun kechirish uchun zarur bo'lgan minimal iste'mol savati, shu jumladan ommaviy miqyosda va eng qulay narxlarda ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlar hisoblanganda; *o'zini o'zi baholash*, aholining maxsus so'rovnoma ma'lumotlaridan foydalanish.

Kambag'allik chegarasini AQSh dollari hisobida belgilash amaliyoti 1964 yildan beri qo'llanila boshlandi. Kambag'allik darajasini taqqoslash uchun BMT tomonidan kambag'allik chegarasi ko'rsatkichidan foydalangan.

- rivojlangan sanoat mamlakatlarida, 1985 yildagi VSOP(valyutaning sotib olish pariteti) narxlarida bir kishi uchun kuniga 14,40 AQSh dollaridan¹ ekvivalenti;

-sobiq Sharqiy Evropa sotsialistik mamlakatlari va MDH mamlakatlari uchun aholi jon boshiga o'rtacha daromad kuniga to'rt AQSh dollaridan oshmaydi (1990 yil VSOP narxlarida).² Shu jumladan mamlakatimizda kambag'allik chegarasi bir kishi boshiga kuniga 3,2 dollar³ etib belgilangan. Barcha qiymatlar valyutaning sotib olish pariteti hisobida ko'rib chiqilgan.

Bir qator mamlakatlardagi o'zgaruvchan vaziyatlarni aks ettirish uchun va qo'shimcha ma'lumotlar paydo bo'lishi bilan xalqaro kambag'allik darajasi bir necha bor qayta ko'rib chiqildi va o'zgartirildi.

Qo'shma Shtatlarda "kambag'allik chegarasi" 1960-yillarda joriy etilgan va to'rt kishidan iborat oilaning daromadini oziq-ovqat uchun minimal xarajatlarning uch barobariga tengdir. "Kambag'allik chegarasi" dan 20-40% ga oshgan qiymat bunday oilalar uchun yashash minimumi hisoblanadi. Bu minimal xarajatlarga dam olish, ta'lim, uydin tashqarida ovqatlanish va hokazolar kiritilmagan.

Shubhasiz, qanchalik "talablar darajasi" yuqori bo'lsa, kambag'allik chegarasidan shunchalik ko'p odamlar pastga tushadi, va aksincha.

¹ Батракова Л. Г. Основные концепции оценки бедности населения. Ярославский педагогический вестник – 2011 – № 3 – Том I. 117-121С

² Батракова Л. Г. Основные концепции оценки бедности населения. Ярославский педагогический вестник – 2011 – № 3 – Том I. 117-121С

³ <https://www.gazeta.uz/>

Kambag'allik ko'lamini aniqlash uchun "kambag'allik darajasi", "kambag'allik chegaralari" va "kambag'allik koeffitsienti" dan foydalaniladi. Umumiy kambag'allik indeksi - bu kambag'allar sonining umumiy aholi soniga nisbati sifatida aniqlanadi. Mamlakatlararo tadqiqotlarda u aholining kambag'allik darajasi ko'rsatkichi sifatida aniqlanadi.

Kambag'allik chegaralari vaqt o'tishi bilan o'zgaradi. Masalan, Qadimgi Yunonistonda aholining 90% qashshoqlikda yashagan bo'lsa, Angliyada Uyg'onish davrida 60% ga yaqini kambag'al deb hisoblangan, XIX asrning 30-yillarida esa inglizlarning faqat uchdan bir qismi kambag'al aholiga tegishli edi. Ayni paytda, Buyuk Britaniyada aholining 10% dan kamrog'i kambag'al hisoblanadi.

Jahon banki dunyo bo'yicha kambag'allikni tahlil qilish va monitoringini o'tkazishda katta tajribaga ega. Bankning ushbu sohadagi asosiy tahliliy mahsulotlari bu - "Kambag'allikni baholash bo'yicha hisobotlar" va "Taraqqiyotning ijtimoiy ko'rsatkichlari" yilnomalari hisoblanadi. Mamlakatning kambag'allik darajasini aniqlashda quyidagi ko'rsatkichlar qo'llaniladi: aholi soni; hudud; aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulot; o'rtacha yillik inflyatsiya darajasi; umr ko'rish davomiyligi; katta yoshdagi aholining savodxonligi foizi (shu jumladan ayollar).

"Kambag'allik" so'zining yagona ta'rifi mavjud emas.

Bir guruh tadqiqotchilar kambag'allik deganda kishilarning asosiy (birlamchi) ehtiyojlarini qondirishning iloji yoqligini tushunsa, boshqalari tanlov erkinligining yetarli emasligi yoki kuniga 1,9 dollardan kam yashash (Jahon banki), uchinchilari esa kishilar jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi ishtirokiga zarar yetkazadigan o'zaro ta'sir qiluvchi ijtimoiy, ta'lim, sog'liqni saqlash tarmog'idagi to'siqlar doirasi deb hisoblashadi. Kambag'allikni baholash bir qator aniq belgilangan ko'nikmalar va usullarni talab qiladi.

Mamlakatimizda kambag'allik darajasini aniqlashda quyidagi ikkita usullardan foydalaniladi:

- *Oziqlanishga asoslangan kambag'allik chegarasi.* Kambag'allik ma'lum shakllarni oladi va bunday shakllardan biri ochlikdir. Bunday holda, farovonlik aholi jon boshiga kunlik kaloriya iste'moli sifatida o'lchanadi va ushbu toifadagi odamlar uchun kunlik minimal energiya talabi bilan taqqoslanadi. BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti minimal darajani kuniga o'rtacha 1800 kilokaloriya deb belgilaydi, insonning yoshi, jinsi va faollik darajasiga qarab mazkur talablar o'zgartiriladi. Mazkur usul natijalari bo'yicha mamlakatimizda kambag'allik darajasini 11,4%¹ tashkil etadi.

- *Xalqaro kambag'allik chegarasi* - Jahon banki tomonidan xalqaro taqqoslash maqsadida qo'llaniladi. U kambag'allik chegarasi ko'rsatkichi sifatida, kuniga 3,2 AQSh dollari miqdorida belgilangan. Mazkur usul bo'yicha, mamlakatimizda kambag'allik darajasi 9,6%²ni tashkil etadi (2018 yilgi xarid qobiliyati pariteti bo'yicha).

So'nggi yillarda mamlakatimizda, kambag'allik muammosini o'rganish uchun ishlatilishi mumkin bo'lgan ommaviy, keng ma'lumotlar bazasini yaratishda sezilarli yutuqlarga erishildi. Ular nafaqat kambag'allikni tavsiflash va kambag'allikning sabablari haqida ko'plab farazlarni sinab ko'rish imkonini beradi, balki maxsus dasturlar va siyosat islohotlarining kambag'allikka ta'sir doirasi o'rganiladi. Masalan, kambag'al va kambag'al bo'lmagan shaxslar yoki uy xo'jaliklarining xususiyatlarini solishtirish orqali kambag'allikning sifatli "tashxisini qo'yish" va kambag'allikka qarshi yordam ko'rsatishning o'ziga xos parametrlarini aniqlash mumkin.

Qoida tariqasida tahlil uchun quyidagi yo'nalishlar bo'yicha ma'lumotlar qo'llaniladi:

- oila a'zolarining xususiyatlari: yoshi, jinsi, millati, ma'lumoti va sog'lig'i;
- uy xo'jaligining demografik xususiyatlari: mehnatga layoqatli yoshdagi bolalar va qariyalar soni;
- mulklar: yer, chorva mollari, mehnat qurollari va ijtimoiy kapital;
- faoliyat turlari: faoliyat sohasi, bandlik turi;

¹ "Профиль бедности в Узбекистане" Бахтишод Хамидов, главный научный сотрудник ЦЭИР <https://www.cer.uz/en/post/publication/bednost-v-uzbekistane>

² "Профиль бедности в Узбекистане" Бахтишод Хамидов, главный научный сотрудник ЦЭИР <https://www.cer.uz/en/post/publication/bednost-v-uzbekistane>

Muassislar:
Buxoro davlat universiteti
“Economic science” mas'uliyati cheklangan jamiyati

"IQTISODIYOT VA TURIZM" xalqaro ilmiy va innovatsion jurnali 2025-yil 1-son (21) 2021-yildan chiqa boshlagan. OBUNA INDEKSI: 200117 Manzil: Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy, 2-bino, 403-xona.	ilmiy va innovatsion nashri Jurnal oliy o'quv yurtlarining professor- o'qituvchilari, ilmiy tadqiqotchilar, ilmiy xodimlar, magistrantlar, talabalar, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari hamda maktab o'qituvchilari, shuningdek, keng ommaga mo'ljallangan. Jurnalda nazariy, ilmiy-metodik, muammoli maqolalar, fan va texnikaga oid yangiliklar, turli xabarlar chop etiladi. Nashr uchun mas'ul: Gavhar XIDIROVA Muharrir: Navruz-Zoda Baxtiyor Negmatovich	Jurnal tahririyat kompyuterida sahifalandi. Chop etish sifati uchun bosmaxona javobgar. Bosishga ruxsat etildi 20.02.2025 Bosmaxonaga topshirish vaqti 27.02.2025 Qog'oz bichimi: 60x84. 1/8 Tezkor bosma usulda bosildi. Shartli bosma tabog'i – 14,5 Adadi – 100 nusxa Buyurtma №124. Bahosi kelishilgan narxda. “Sadriddin Salim Buxoriy” MCHJ bosmaxonasida chop etildi. Bosmaxona manzili: Buxoro shahri M.Iqbol ko'chasi 11-uy.
--	--	--